



UDK: 81'37:398.21(=511.141=111)

Gulzoda YULDASHEVA,
Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-mail: gulzoday@inbox.ru

NamDTU professori, f.f.d. D.Xoshimova taqrizi asosida

A FRAMEWORK FOR CORPUS – PRAGMATIC ANALYSIS OF HAPPINESS AND UNHAPPINESS IN ENGLISH AND UZBEK FOLKTALES

Annotation

Research that reveals the linguistic expression of a particular concept contributes not only to linguistics but also to the development of sciences such as cultural studies, anthropology, psychology, and philosophy. In this regard, it is of great importance to analyze how “happiness”, which, in the words of the father of philosophy Aristotle, is considered “the highest value of humanity”, is realized through linguistic means in folk tales that reflect a people’s worldview, way of life, dreams, and hopes, as well as to analyze the mutual opposition between “happiness” and its antithesis, “unhappiness”. This study particularly emphasizes the importance of investigating the linguistic nature of concepts within context, i.e., from a pragmatic perspective, which reveals their function in actual speech. The article first discusses the essence and methodology of corpus pragmatics, a new direction in linguistics, and outlines the intended corpus pragmatic approach for a pragmatic analysis of the verbalizers of the conceptual binary opposition of “happiness” and “unhappiness” in English and Uzbek folk tales. The aim of the research is to develop a corpus pragmatic approach for investigating the realization of this conceptual binary opposition in folk tale texts from a pragmatic point of view.

Key words: Corpus pragmatics, cultural linguistics, folktales, emotion concepts, Uzbek language, English language, happiness, unhappiness.

МОДЕЛЬ ДЛЯ КОРПУСНО – ПРАГМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА СЧАСТЬЯ И НЕСЧАСТЬЯ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация

Исследования, раскрывающие языковое выражение определенной концепции, вносят вклад не только в лингвистику, но и в развитие таких наук, как культурология, антропология, психология и философия. В этой связи крайне важно проанализировать, как “счастье”, которое, по выражению отца философии Аристотеля, считается “высшей ценностью человечества”, реализуется посредством языковых средств в народных сказках, отражающих мировоззрение, образ жизни, мечты и надежды каждого народа, а также проанализировать взаимную оппозицию между “счастьем” и его антитезой – “несчастьем”. В данном исследовании особое внимание уделяется изучению языковой природы концептов именно в контексте, то есть с прагматической точки зрения, что раскрывает их функцию в реальной речи. В статье сначала рассматриваются сущность и методология корпусной прагматики как одного из новых направлений в лингвистике, а также освещается планируемый корпусно-прагматический подход для прагматического анализа вербализаторов концептуальной бинарной оппозиции “счастье” и “несчастье” в английских и узбекских народных сказках. Цель исследования заключается в разработке корпусно-прагматического подхода для изучения реализации данной концептуальной бинарной оппозиции в текстах народных сказок с прагматической точки зрения.

Ключевые слова: Корпусная прагматика, культурная лингвистика, народные сказки, концепты эмоций, узбекский язык, английский язык, счастье, несчастье.

INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI BAXTLILIK VA BAXTSIZLIKNING KORPUS -PRAGMATIK TAHLILI UCHUN MODEL

Annotatsiya

Ma'lum bir konseptning lisonida ifodalanishini ochib beruvchi tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik balki, madaniyat, antropologiya, psixologiya, falsafa kabi fanlar rivojiga hissa qo'shadi. Shu o'rinda faylasufilar otasi Arastu ta'biri bilan aytganda “insoniyatning eng oliy qadriyati” hisoblanuvchi “baxt” ni har bir xalq dunyoqarashi, yashash tarzi, orzu-umidarini ifodalab beruvchi xalq ertaklarida qanday lisoniy vositalar bilan voqelanishi, “baxt” va uning aksi hisoblanmish “baxtsizlik”ning o'zaro zid munosabatini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda ayniqsa konseptlarning lisoniy tabiatini aynan kontekstda ya'ni pragmatik jihatdan o'rganish uning asl nutqda qanday vazifa bajarishini ochib beradi. Maqolada dastlab tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri hisoblanuvchi korpus pragmatikasining mohiyati, metodologiyasi haqida to'xtalib, ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi “baxtlilik” va “baxtsizlik” konseptual binar oppozitsiyasining verbalizatorlarini pragmatik jihatdan tahlil qilish uchun ko'zda tutiluvchi korpus pragmatik yondashuvni yoritib beriladi. Tadqiqotning maqsadi ushbu konseptual binar oppozitsiyaning xalq ertaklari matnida voqelanishini pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq qilish uchun korpus pragmatik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Korpus pragmatikasi, madaniy lingvistika, xalq ertaklari, his-tuyg'u kontseptlari, o'zbek tili, ingliz tili, baxt, baxtsizlik.

Kirish. Xalq ertaklari xalq og'zaki ijodining yorqin namunalaridan biri bo'lib, ular nafaqat insoniyat hayotida ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi, balki xalqlarning yashash tarzi, dunyoqarashi, ularning orzu-intilishlari, ijtimoiy normalar va qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Xalq ertaklarida aks etgan yaxshilik va yovuzlik, baxtlik va baxtsizlik kabi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan konseptlarni tahlil qilish mobaynida barcha xalqlar uchun universal bo'lgan modellar bilan bir qatorda har biri uchun alohida bo'lgan xususiyatlar ham aniqlanadi. Ingliz hamda o'zbek xalq ertaklari borasida olib borilgan izlanishlar juda ko'p. Misol uchun ikki xalq ertaklaridagi onomastik birliklar[1], "sinov" konseptining verballashuvi[2] kabi izlanishlar. Lekin olib borilgan ilmiy izlanishlarda hali korpus metodlari xalq ertaklari tilini tahlil qilish maqsadida qo'llanilmagan, ayniqsa o'zbek tilshunosligida.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi baxtlik va baxtsizlik konseptlarining korpus pragmatik tahlili uchun model ishlab chiqish maqsadida xalq ertaklari, xususan ingliz va o'zbek xalq ertaklarini o'rganishga qaratilgan; konseptlar, xususan "baxtlik" va "baxtsizlik" konseptual oppozitsiyasi borasida olib borilgan; tilshunoslikda nisbatan yangi yo'nalish hisoblangan korpus pragmatikasi haqida ilmiy adabiyotlar, maqolalardan foydalanildi. Xalq ertaklari o'ziga xos janriy xususiyatlari va tili orqali nafaqat folklorshunoslar balki adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasi izlanuvchilarining ham diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ertakshunoslikning otasi hisoblangan rus olimi V. Propp tomonidan xalq ertaklarining ichki tuzilishini 31 ta funktsiya orqali tahlil qilinishi va uning ingliz tiliga tarjima qilinishi orqali dunyo olimlariga havola qilinishi ko'pgina tadqiqotlarga turtki bo'ldi. Jahon xalqlari ertakshunosligiga tamal toshini qo'ygan olimlardan yana diqqatga sazovorlari nemis olimlari aka-uka Yakob va Vilgelm Grimm'lardir. Xuddi aka-uka Grimm'lari singari o'z xalqining milliy ertaklarini to'plam holiga keltirgan ilk ingliz ertaknavislari Joseph Jacobs, Andrew Langlar[3] hisoblanib, ularning ertak to'plamlari hozirgi kungacha ham foydalanib kelinadi. O'zbek xalq ertaklari to'plamlarini yaratishda esa Hodi Zarif, Buyuk Karim, Mansur Afzalov, To'ra Mirzayev, Komiljon Imomovlar[4] dastlabki qadamlarni qo'yishgan. M. Karanevich ingliz ertaklarining lingvokulturoviy xususiyatlarini tahlil qilish mobaynida ushbu ertak matnlarini so'zlashuv uslubiga oid so'zlar, grammatik qoidalarning buzilishi va soda gaplarning, stilistik jihatdan esa parallel konstruksiyalar, takror va inversiyalarning ishlatilishi ko'p uchrashi bilan xarakterlaydi[5]. Xalq ertaklaridagi gender rollari borasida ingliz tadqiqotchilaridan M. Tatar, o'zbek tadqiqotchilaridan esa A. Mo'minova o'zbek xalq ertaklarida xotin-qizlar obrazini o'rganishgan[6]. Teshaboyeva L ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi onomastik birliklarni tahlil qilib, ingliz ertaklarida alliteratsiya ya'ni ohangdoshlikka asoslangan ismlar, o'zbek ertaklarida esa ularning leksik birliklar orqali ifodalanishi ko'proq ekanligini ta'kidlaydi[7].

Bugungi kunda tadqiqotchilarning diqqat markazidagi mavzu bo'lgan baxtlik va baxtsizlik binar oppozitsiyasining nazariy asoslarini K. Levi-Straussning binar oppozitsiyasining nazariyasi, B. Holbekning daniya ertaklaridagi misollarida ko'rish mumkin. Baxtlik va baxtsizlik konseptlari shaxsning hissiy tajribasini, ijtimoiy marosimlarni va hikoyaviy tuzilmalarni idrok etishini va madaniy jihatdan tashkil etishini ta'minlovchi qarama-qarshilikni hosil qiladi. Shuning uchun ham, ushbu konseptlarning ingliz va o'zbek tillaridagi lingvistik ifodalari nisbatan tasodfiy so'zlar to'plami emas, balki chuqurroq, universal kognitiv strukturaning ko'rinishidir. Ikkita lingvistik dunyoqarashda maxsus metaforalar, frazeologik birliklar va madaniy ramzlar (keyingi bo'limlarda tahlil qilinadi) farq qilishi mumkin bo'lsa-da, ularning asosidagi

qarama-qarshilik munosabati doimiy bo'lib, qiyosiy tahlil uchun umumiy asos yaratadi.

Nazariy jihatdan, lingvopragmatika J. Austin (1962), H.P. Grice (1975), S. Levinson (1983) kabi olimlarning nazariyalarga tayanadi. Pragmatika va korpus tilshunoslik kesishmasi asosida vujudga kelgan zamonaviy lingvistik tahlil usullaridan biri korpus pragmatikasi yangi yo'nalish bo'lishiga qaramasdan o'zining nazariy asoslari va amaliy misollariga ega bo'lib ulgurgan yo'nalishdir. Clancy va O'Keeffe korpus pragmatik tahlillarda foydalanish uchun ikki yondashuv: shakldan-vazifaga (form to function) va vazifadan shaklga (function to form)ni qanday qilib qo'llash mumkinligini Amerika zamonaviy ingliz tili korpusi (COCA) orqali misollar bilan ko'rsatib berishadi[8]; Christoph Rühlemann and Brian Clancy esa ingliz tilidagi "as if" ning qo'llanilishini korpus pragmatik usullar yordamida tahlil qilishni yoritib berishadi[9]. Bir guruh rus tadqiqotchilari ingliz tilidagi tasdiq so'q gaplarni og'zaki diskursda korpus tahlillari va pragmatik tahlillar orqali o'rganishadi[10]: dastlab ular korpusdan dialoglar va tasdiq so'roq gaplardan iborat, so'ng miqdor ko'rsatkichlarni aniqlashadi: ularning chastotasi, grammatik namoyon bo'lishi, kerakli materialni tanlab olishadi. Clancy va O'Keeffe korpus pragmatikasida foydalanish mumkin bo'lgan ikkita asosiy yondashuvlar batafsil ochib berishgan[11]. Unga ko'ra korpus pragmatikasida "from to function" (shakldan vazifaga) va "function to form" (vazifadan shaklga) kabi yondashuvlardan foydalaniladi: "form to function" yondashuvida tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, avval korpus tahlillari asosida aniqlandigan chastotalar, kalit so'zlar, konkordanslar orqali shakllarga e'tibor qaratiladi, tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan shakllar aniqlanadi, mavjud kontekstual ma'lumotlardan foydalanib, yaqqol shakllarni keltirib chiqariladi. "Function to form" yondashuvida esa tadqiqot savoliga aloqador bo'lgan bironta topshiriq tanlanadi, tadqiqot ishtirokchilariga topshiriq tayyorlanadi, ushbu vazifaga aloqadorlikda paydo bo'lgan shakllarni aniqlash uchun to'plangan ma'lumot tahlil qilinadi. Korpus pragmatik tadqiqotlar haqida ajoyib qo'llanma hisoblanuvchi "Korpus Pragmatics" kitobida mualliflar sohadagi barcha qiyinchiliklarni tasvirlash bilan bir qatorda korpus pragmatikasi orqali takrorlanuvchi lingvistik modellarni aniqlash imkoniyati, tizimli tarzda ifodalanuvchi namunalarini baholash imkoniyati, topilgan ma'lumotlarni umumlashtirish imkoniyati, korpus ma'lumotlari boshqa tadqiqotchilar uchun ham ochiq bo'lgan darajada batafsil berilsa, korpuslar asosida natijalarni tekshirish va takrorlash, yaxshi metodologiyadan foydalanish orqali maksimal darajada shaffoflikka erishish mumkinligi kabi afzalliklarga ega ekanligini ta'kidlashadi[12]. Jahon tilshunosligida lingvistik jihatdan annotatsiyalangan korpuslar juda ko'p bo'lib, aynan pragmatik annotatsiyalangan korpuslar soni ham ortib bormoqda. Rühlemann, Aijmer, Weisser kabi tadqiqotchilar nutq aktlari bo'yicha, pragmatik markerlari bo'yicha, qatnashuvchilar roli annotatsiyalangan va xushmuomalalik kriteriyasi bo'yicha annotatsiyalangan korpuslarni misol qilib keltirishadi[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mobaynida mavzuga oid adabiyotlar kontent-tahlili usulida o'rganib chiqildi, tajriba sifatida o'zbek va ingliz xalq ertaklaridan namunalar korpus tahlili uchun tozalanib tayyorlandi, AntConc dasturi yordamida korpus-pragmatik usullar: miqdoriy (kvantitativ) va sifat ko'rsatkichlariga oid (kvolitativ) eksperimentlar amalga oshirildi: Korpus hajmi: tajriba sifatida ingliz tilidagi 5 ta ertak (11498 so'z) va o'zbek tilidagi 5 ta ertak (12598 so'z) tanlab olindi. Annotatsiya mezonlari: matnda "baxtlik" va "baxtsizlik"ni ifodalovchi lingvistik birliklarning ko'rinishlari (fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, frazeologik birliklar) ro'yxati til korpuslari,

izohli lug'atlar, mavzuga oid ilmiy ishlar yordamida shakllantirildi. Tahlil usullari: AntConc dasturi yordamida "happy", "baxtli" kabi asosiy so'zlarni qidirishdan tashqari, ularning sinonimlari, antonimlari va metaforik ifodalari qidirildi. Kollokatsiya tahlili 5 so'zlik o'ng va chap kontekstda eng ko'p uchraydigan so'zlar orqali olib boriladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi baxtilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasining korpus pragmatik tahlilini amalga oshirish maqsadida quyidagi metodologiya modeli ishlab chiqildi:

1. Korpus pragmatik tahlil uchun ingliz va o'zbek xalq ertaklari matnlarini tanlash va yig'ish. Xalq ertaklari og'zaki usulda avloddan avlodga o'tib kelib, ertakshunoslar tomonidan to'plam holiga keltiriladi. Tadqiqot uchun ingliz xalq ertaklari uchun J. Jacobs, A. Lang kabilarning ertak to'plamlari, o'zbek xalq ertaklari uchun Mirzayev, Imomov kabilarning to'plamlaridan foydalanildi. Ingliz xalq ertaklari to'plamlari elektron kitob holida bo'lganligi tufayli ushbu elektron kitoblardan ko'chirib olindi. O'zbek xalq ertaklari bosmadan chiqqan kitob holida bo'lganligi uchun elektron holatga o'tkazish uchun matnni rasmga olib elektron holatga o'tkazuvchi dasturlardan foydalanildi.

2. Ertak matnlarini qayta ishlash va tahlil qilish. Matnlarni tozalashda ulardagi formatlash belgilarini va boshqa keraksiz elementlarni word matn dasturida manually (qo'lda tahlil qilish orqali) olib tashlandi. Matnlarni annotatsiya qilishda ularga lingvistik ma'lumotlar, tadqiqot zaruriyatidan kelib chiqib pragmatik annotatsiyalar qo'shildi.

3. Ertak matnlarini tahlil qilish uchun turli statistik va lingvistik usullar qo'llash. Kollokatsiya tahlili orqali so'zlarning bir-biri bilan qanday bog'lanishini o'rganildi (Nutq aktlari, diskurs markerlari va boshqa pragmatik hodisalarni o'rganish mumkin). Konkordans tahlili orqali so'z yoki iboralarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini o'rganildi (Pragmatik hodisalarning turli kontekstlarda qanday ifodalanishini o'rganish mumkin). Statistik tahlil yordamida turli lingvistik hodisalarning chastotasi, tarqalishi va boshqa statistik ko'rsatkichlari hisoblandi (Pragmatik hodisalarning chastotasi, tarqalishi va boshqa statistik ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin). Tanlangan xalq ertaklari matnlarida

baxtilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi verbalizatorlarini korpus tahlilini amalga oshirish maqsadida quyidagi manbalar asosida baxtilik hamda baxtsizlikni aks ettiruvchi til birliklari ro'yhati shakllantirildi: Ingliz tilidagi Macmillan Dictionary, O'zbek tilining izohli lug'ati, M. Qosimova, T. Mardiyev, Z. Raxmonova, S. Karimova, G. Yuldashevalarning dissertatsiya ishlari va ilmiy maqolalari [13]. Ushbu verbalizatorlar ro'yhatini shakllantirishda lingvistik birliklar turli til sathlariga bo'linib berildi: fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, frazeologik, tekstologik, paramiologik, paralinguistik birliklarga ajratildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi – korpus pragmatikasi metodologiyasini an'anaviy folklor matnlari, xususan, ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi murakkab hissiyot konseptlarini o'rganishga tatbiq etish uchun umumiy model (framework) ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korpus-pragmatik yondashuv ushbu konseptual oppozitsiyaning nutqda qanday amalga oshirilishini tizimli va obyektiv tahlil qilish imkonini beradi. Model quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: Matnli korpuslarni shakllantirish va annotatsiya qilish: Ingliz va o'zbek tillaridagi ertaklar to'plamlarini yig'ish, ularni elektron formatga o'tkazish va pragmatik tahlil uchun zarur bo'lgan morfologik, semantik va nutq aktlari darajasida annotatsiya qilish. Kvantitativ va kvalitatif tahlil usullarini qo'llash: AntConc kabi dasturiy vositalar yordamida kollokatsiya, konkordans va chastota tahlillarini olib borish, so'ngra topilgan ma'lumotlarni pragmatik (nutq aktlari, deysis, implikatura) va madaniy-lingvistik nuqtai nazardan talqin qilish. Qiyosiy-tipologik tahlil: Ikkala madaniyat ertaklaridagi "baxtilik" va "baxtsizlik"ning lingvistik ifodalanishidagi universal va madaniyga xos xususiyatlarni aniqlash. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u an'anaviy lingvistik tahlilni zamonaviy korpus texnologiyalari va pragmatikaning chuqur qatlamlari bilan uyg'unlashtiradi. Kelgusida tadqiqot doirasini kengaytirish va natijalarning statistik ishonchligini oshirish uchun ingliz va o'zbek ertaklar korpusini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Teshaboyeva L. O'zbek va ingliz tillarida ertak janriga xos onomastik birliklar: Filol. fan. dokt. (PhD) ... diss. – Farg'ona, 2024. – 141 b.
2. Israilova S. Ingliz va o'zbek tillarida ertak diskursida "sinov" konsepti verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 52 b.
3. Manis Jim. English Fairy Tales Collected by Joseph Jacobs. - Hazleton: the Pennsylvania State University, *Electronic Classics Series*, 2005.p.169;Lang A.The Blue Fairy Book. Fifth Edition. London:Longmans, Green, And CO, 1891. – p. 390.
4. Afzalov M., Rasulov X., Husainova Z. O'zbek xalq ertaklari. I jild. – Toshkent: "O'qituvchi" Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi, 2014. – 11 b.
5. Karanevych M. Linguocultural features of british tales. // *Advanced Education*, 2017, Issue 8, pp.122-127. DOI: 10.20535/2410-8286.107742.
6. Tatar Maria. The Hard Facts of the Grimm's Fairy Tales. - Princeton: Princeton University Press, 1987.- p. 302.
7. Teshaboyeva L. O'zbek va ingliz tillarida ertak janriga xos onomastik birliklar. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2024. – 141 b.
8. Clancy, B., & O'Keeffe, A. (2018). Corpus pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 233–256). John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11>.
9. Rühlemann, C., & Clancy, B. (2018). Corpus linguistics and pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 239–268). John Benjamins Publishing Company. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11>.
10. Kochetova L.A., Ilyinova E.Yu., Klepikova T.A. Tag Questions in English Spoken Discourse: Corpus- Based Linguistic and Pragmatic Analysis. *Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2. Yazykoznanie* [Science Journal of Volgograd State University. Linguistics],
11. Clancy, B., & O'Keeffe, A. (2018). Corpus pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 233–256). John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11> p 48.
12. Landert D, Dayter D, Messerli T, Locher M. A. 2023 Corpus Pragmatics. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781009091107>.
13. Madvaliyev A., Xudayberganova D. O'zbek Tilining Izohli Lug'ati. Ikkinchi Jild. E-K. – Toshkent: G'afur G'ulom Nomidagi Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi, 2023.